

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


09 iyun, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-09 iyun, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- Mart oyida SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'sishni boshladi. O'tgan hafta boshida daromadlilik 8,154% ga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 8,036% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 7,837% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 7,603% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 7,526% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,561% – 8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi o'sishni boshladi va 6,689% ga yetdi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik ko'tarilib, 6,737% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,962% – 8,533% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,35% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 4,29% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) joriy haftaning boshiga kelib 1,959% (3 oylik) va 2,036% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo hajmi **940,4** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **458,4** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 857** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib, **12 777** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **0,98%** ni tashkil etdi.




Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



09.06.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Asaka bank**da qayd etilgan – **12 770** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 775** – **12 970** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB bank**da qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 880-12 650** so'm atrofida bo'lgan.



➤ Asosiy stavkaning pasayishi fonida rubl mustahkamlanmoqda

AQSh dollarining Rossiya rubliga nisbatan kursi 1 dollar uchun 79,6 rublni tashkil etmoqda. Rossiya Markaziy banki kutilmaganda asosiy foiz stavkasini 1 foiz punktiga pasaytirib, 20 foizga tushirdi. Ushbu qaror inflyatsiyaning sekinlashuvi va iqtisodiyotning sovuqlashuvi sharoitida qabul qilindi. Stavkaning pasaytirilishi rubl aktivlarini investorlar uchun yanada jozibador qiladi, bu esa rublning mustahkamlanishiga hissa qo'shmoqda.

Rublning hozirgi mustahkamlash tendentsiyasiga qaramay, mutaxassislar ayrim xavf-xatarlar haqida ogohlantirmoqda: neft narxlarining pasayishi va tashqi qo'llab-quvvatlashning susayishi 2025-yilning ikkinchi yarmida rubl kursiga bosim o'tkazishi mumkin.

➤ Rubl yuanga nisbatan biroz pasaydi

Xitoy yuani Moskva birjasida mustahkamlandi, shu bilan birga rubl neft narxlarining barqarorlashuvi fonida yaqinda ko'tarilgandan so'ng biroz pasaydi. Kursdagi o'zgarishlar rublning oldingi mustahkamlanishidan keyingi korreksiyasi hamda 6 iyun kuni o'tkazilgan Rossiya Markaziy banki yig'ilishi natijalari bo'yicha kutishlarga bog'liq. Rublga qo'shimcha yordam xomashyo bozoridagi barqaror vaziyat tomonidan ta'minlanmoqda. Qisqa muddatda RUB/CNY juftligining kursi 10,3–11 rubl oralig'ida saqlanib qolishi mumkin, shuningdek, rubl aktivlariga qiziqish davom etsa, pastki chegarani sinab ko'rishi ehtimoli mavjud.


➤ EUR/USD kursining tor doiradagi kichik tebranishlari

2025-yil may oyining oxirida evroning dollarga nisbatan kursi 1,1392–1,1347 oralig'ida harakatlandi. Eng yuqori ko'rsatkich 26-may kuni 1,1387 darajasida qayd etilgan bo'lsa, 30-mayga kelib kurs biroz pasayib, 1,1347 ni tashkil etdi.

Ushbu kursdagi tebranishlar Yevropa va AQShdagi iqtisodiy vaziyat hamda Yevropa Markaziy banki va AQSh Federal Rezerv Tizimi (FRS) tomonidan kutilayotgan siyosiy qarorlar bilan bog'liq edi. Ba'zi o'zgarishlarga qaramay, evro bozor iqtisodiy yangiliklar va investorlar kayfiyatining muvozanatli ta'siri tufayli barqaror qolishga muvaffaq bo'ldi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



- AQSh va Xitoy o'rtasidagi muzokaralarga bo'lgan optimizm fonida oltin narxlar barqaror qolmoqda

Investorlarning ehtiyotkorligi fonida oltin narxlar biroz oshdi. Spottagi oltin narxi bir untsiya uchun 3312 dollargacha ko'tarildi. Donald Trampning uch nafar maslahatchisi savdo nizolarini muhokama qilish uchun Xitoy vakillari bilan uchrashadi, bu nizolar jahon bozorlarida keskinliklarni keltirib chiqarmoqda. OANDAning katta tahlilchisi Kelvin Vongning ta'kidlashicha, qisqa muddatli treyderlar muzokaralar yakunlanmaguncha uzoq pozitsiyalardan qochmoqda. U shuningdek, tariflar to'liq bekor qilinmasligi ehtimoli yuqori ekanligini, ammo muzokaralar vaziyatni yaxshilashi mumkinligini, shuningdek, AQShda biznes yuritish xarajatlari yuqori qolishi va byudjet defitsiti inflyatsiyaga bosim o'tkazishda davom etishini qo'shimcha qildi.


Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



- Brent nefti barrel uchun 66 dollarga ko'tarildi

Brent markali neft narxi kecha barrel uchun 66 dollargacha oshdi. Neft narxlar AQSh va Xitoy liderlari o'rtasidagi suhbat fonida tez ko'tarildi. Donald Tramp va Si Szipin o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi. Xitoy rahbari amerikalik prezidentni Xitoyga tashrif buyurishga taklif qildi va Tramp bu taklifni qabul qildi. Vaziyat yumshash tomon siljiy boshlagandek ko'rinadi. Shu bilan birga, Trampni va tez o'zgaruvchan holatni hisobga olib, hozircha haddan tashqari tez xulosalar chiqarishdan tiyilish ma'qul. Eslatib o'tamiz, agar munosabatlarda eskalatsiya kamayadigan bo'lsa, bu neft narxining oshishiga turtki bo'lishi mumkin.

TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



- Yevropada tabiiy gaz narxlar zaxiralarni to'ldirishga doir xavotirlar tufayli oshmoqda

Yevropada tabiiy gaz narxlar zaxiralarni to'ldirish sur'atlariga doir xavotirlar sababli ko'tarilmoqda. Ushbu xavotirlar zaxiralarni to'plash mavsumi boshlanganidan atigi ikki oy o'tib yana paydo bo'ldi. Narxlar ustidagi bosim yuqori operatsion xarajatlarni qoplash uchun yetarli bo'lgan auksion narxlarining o'tkazilishidagi qiyinchiliklar natijasidir. Tahlilchilar shuningdek, tanqislik hukumatning aralashuviga olib kelishi mumkinligini ogohlantirdi. Shu xavotirlarga qaramay, may oyida Yevropa qit'asida gazga bo'lgan talab taxminan 5% ga kamaydi. Boshqa tomondan, suyuqlashtirilgan tabiiy gaz importi yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Yangiliklar

RBS (Shotlandiya Qirollik Banki) korporativ mijozlar uchun VR-bank xizmatlarini sinovdan o'tkazmoqda

May oyida RBS virtual ofis ochdi, unda korporativ mijozlar VR-platfoma orqali uchrashuvlar o'tkazish, hisobotlarni ko'rish va shartnomalarni rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu uzoqdan hamkorlikni samaraliroq qiladi.

Kommerçbank yuridik hujjatlarni avtomatik tekshirish uchun sun'iy intellektni joriy qilmoqda

Deutsche Commercial Bank (Kommerçbank) kreditlar va investitsiyalar bo'yicha yuridik hujjatlarni avtomatik tarzda tahlil qiluvchi va tekshiruvchi tizimni ishga tushirdi, bu esa rozilik olish jarayonini tezlashtiradi.

Credit Suisse ovozli yordamchini moliyaviy murabbiylik funksiyasi bilan integratsiya qildi

Credit Suisse mobil ilovasini yangiladi va unga ovozli AI-maslahatchini qo'shdi, u mijozlarga xarajatlar va investitsiyalarni rejalashtirishda yordam beradi hamda moliyaviy savodxonlikni oshirishga ko'maklashadi.

MUFG (Yaponiya) yapon va ingliz tillarini qo'llab-quvvatlovchi ovozli bank xizmatini ishga tushirmoqda

Mijozlar bank operatsiyalarini ovozli buyruqlar orqali amalga oshirishlari mumkin bo'lib, bu xizmatlarning qulayligi va mavjudligini oshiradi.